

The logo for 'a-pay' is located in the top left corner. It consists of the text 'a-pay' in a stylized, blue, sans-serif font, enclosed within a rounded rectangular border with a dark blue outline and a light blue fill.

# «APS bonus» BONUS DASTURINING QOIDALARI

Toshkent sh.

20.06.2023



# 1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. «APS bonusi» bonus Dasturi «A-Pay» Elektron pul Tizimidan foydalanuvchi Mijozlarni ragʻbatlantirish va mukofotlash maqsadida tashkil etilgan hamda Tizim Foydalanuvchilarining faolligini oshirishga yoʻnaltirilgan.
- 1.2. «APS bonusi» bonus Dasturining ushbu qoidalari (bundan keyin matnda – Qoidalar, Dastur) Mijozlarning undagi ishtirokining umumiy shartlari va tartibini belgilaydi. «APS bonusi» bonus Dasturi Elektron pullarni ishlatgan holda «A-Pay» Elektron pullari Tizimidan (bundan keyin matnda – Tizim) toʻlovlar, oʻtkazmalar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanuvchi Mijozlar-jismoniy shaxslarga moʻljallangan.
- 1.3. Mijozlarning «APS bonusi» bonus Dasturi (bundan keyin matnda – Dastur)ga kirishi ushbu bonus Dasturining Qoidalari koʻrinishida taqdim etilayotgan Ommaviy oferta yoʻli bilan amalga oshiriladi. Qoidalar «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ – «A-Pay» Elektron pullar Tizimi Operatori (bunday keyin matnda – Operator, Tizim Operatori) (yuridik manzili: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, A.Qahhor koʻchasi, 9-tor koʻcha, 1A-uy/STIR 306 344 019 /IFUK 58290) bundan keyin matnda – Operator, Tizim Operatori)ning Mijozning Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi meʼyorlariga muvofiq Dasturda (ommaviy ofertada) qatnashishiga shartnoma tuzish uchun rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.
- 1.4. Operator oʻzining quyidagi manzildagi rasmiy <https://www.a-pay.uz> sayti va (yoki) mobil ilovasi orqali ushbu Dasturning dolzarb versiyasini joylashtiradi va Mijozni Tizim Operatori va/yoki mobil ilova vositasida ushbu Dasturga qoʻshilish imkonini tashkil etadi.
- 1.5. Shartnoma Mijoz tomonidan Dastur Qoidalarida nazarda tutilgan va qoʻshilish shartlarida barcha shartlarni hech qanday istisnosiz va cheklovlarsiz qabul qilishni anglatuvchi harakatlar sodir etilgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.
- 1.6. Mijoz akseptni amalga oshira turib, ushbu Shartnomaning shartlariga rozi boʻladi va ularni qabul qiladi hamda Dastur Ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan aksept amalga oshirilgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va uning qiymati yozma shaklda tuzilgan hujjatga tengdir.
- 1.7. Oferta aksepti Mijoz tomonidan har qanday konklyudent harakatlari bilan: «A-Pay» Elektron pullar Tizimida roʻyxatdan oʻtish, SMS kodni kiritish, birinchi tranzaksiyani olib borish orqali amalga oshiriladi.
- 1.8. Qoidalarda nazarda tutilgan konklyudent harakatlarni amalga oshira turib, Ishtirokchi shu tariqa Dastur Qoidalarining toʻliq matni va Qoidalarda koʻrsatilgan hujjatlar bilan tanishib chiqqanligini, Qoidalarning shartlari va tartiblarini toʻliq qabul qilganini, ularga roziligini va rioya qilishini tasdiqlaydi.
- 1.9. Dastur doimiy ravishda joriy etiladi, biroq Tizim Operatori bir tomonlama tartibda «APS bonusi» bonus Dasturiga oʻzgartirish kiritish, toʻldirish va/yoki Bonus Dasturini bekor qilish huquqini oʻzida saqlab qoladi.
- 1.10. Dasturda ishtirok etish ixtiyoriy va bepul hisoblanadi. Operator Dastur Ishtirokchisini marketing aksiyalarini joylashtirish qoidalari va shartlari toʻgʻrisida rasmiy internet resurslari va/yoki mobil ilovalarida, shuningdek, Ishtirokchi maʼlumot olishi mumkin boʻlgan boshqa usullar bilan xabardor qiladi.
- 1.11. «APS bonusi» bonus Dasturi Tizim Operatori tomonidan bir tomonlama tartibda axborotni rasmiy saytda va mobil ilovasida joylashtirish yoʻli bilan oʻzgartirilishi yoki toʻldirilishi mumkin. Agar joylashtirishda boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, yangi shartlar ular chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

## 2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

- 2.1. «APS bonusi» bonus Dasturi – Operator va Hamkorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida birgalikda amalga oshiriladigan, Mijozlarning tovarlarni, xizmatlarni sotib olishdagi, Qoidalarda belgilangan asoslar bo‘yicha Ishtirokchilarga Ballar hisoblanishini nazarda tutuvchi «A-Pay» Elektron pul Tizimidan foydalangan holda faolligini oshirishga qaratilgan dasturdir.
- 2.2. Qoidalar – <https://www.a-pay.uz> manzili bo‘yicha Internet tarmog‘ida va/yoki boshqa mobil ilovasida joylashtirilgan, marketing kampaniyalarining Tizim Operatori tomonidan olib boriladigan Bonuslarni hisoblash, yopish (o‘chirish) va tiklash tartibini belgilash jarayonidagi ommaviy oferta hisoblanuvchi haqiqiy hujjat.
- 2.3. Dastur Ishtirokchisi (Ishtirokchi) – «A-Pay» Elektron pullar Tizimida qayd etish tartibidan o‘tgan, elektron hamyonga kirish huquqi ochilgan va Dasturda Qoidalarda bayon etilgan shartlar asosida qatnashuvchi Mijoz.
- 2.4. APS bonus – «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Operatori tomonidan Dastur doirasida Ishtirokchining bonus hisobiga hisoblanadigan va undan foydalangan taqdirida Mukofot olish huquqini beruvchi shartli (virtual) birlik. APS bonuslar to‘lov vositasi hisoblanmaydi va bunday bo‘lishi ham mumkin emas, ular pul ham, qimmatli qog‘oz ham emas, ularni naqd pulga aylantirish yoki meros bo‘yicha topshirish ham mumkin emas.
- 2.5. APS bonusining hisoblanishi – Ishtirokchi tomonidan Dastur va/yoki Aksiya qoidalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirgan Operatsiyalari va/yoki boshqa harakatlari natijasida uning Bonus hisob raqamidagi Bonuslarining ko‘payishiga olib keladigan jarayon.
- 2.6. APS bonusini qo‘llash – bu shunday jarayon bo‘lib, uning natijasida Dastur Ishtirokchisining tashabbusi bilan Peshtaxtada taqdim etilgan Tovarlar, xizmatlarni sotib olishda, shuningdek, Aksiyalarda ishtirok etish maqsadlarida Ishtirokchining Bonus hisob raqamidagi APS bonuslari miqdorining kamayishi yuz beradi.
- 2.7. Hamkor – Operator bilan shartnoma tuzuvchi, Operator bilan birgalikda Ishtirokchilar tomonidan tovarlar, xizmatlar evaziga, jumladan, Aksiya doirasida APS bonuslarini mukofot tarzida olish va/yoki foydalanish imkoniyati Dasturini amalga oshiradigan yuridik shaxs (merchant).
- 2.8. Aksiya – Dastur doirasida Operator va/yoki Hamkor tomonidan «A-Pay» Elektron pul Tizimidagi faollikni oshirish, Ishtirokchilarning Operator, Hamkorning mahsulotlariga nisbatan ishonchini shakllantirish va oshirishga qaratilgan ommaviy oferta sharoitida o‘tkaziladigan Ishtirokchiga mukofot taqdim etishdan iborat bo‘lgan marketing tadbiri.
- 2.9. Aksiya tranzaksiyalari – Dastur shartlari bo‘yicha va/yoki tegishli Marketing aksiyalarining shartlariga ko‘ra Bonuslarni hisoblashni nazarda tutuvchi Tranzaksiyalar (yoki Ishtirokchining boshqa harakatlari/voqealar).
- 2.10. Mukofotlash (Rag‘batlantirish) – rag‘batlantirish shakli, Qoidalar va/yoki Aksiya doirasida taqdim etilgan Ishtirokchilarga haq to‘lash.
- 2.11. Bonus dasturini suiiste‘mol qilish – Ishtirokchining tovarlar, xizmatlarni sotib olmasdan turib, shaxsiy iste‘moli maqsadlarida, yoxud noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mablag‘lar hisobiga tranzaksiyani amalga oshirish orqali, yoki noto‘g‘ri axborot (ma‘lumot)ni taqdim etish yo‘li bilan amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risidagi, yoxud Ishtirokchi tomonidan Dastur va/yoki Aksiya doirasida taqdim etiladigan qandaydir imtiyozlar va mukofotlarni qo‘lga kiritishga qaratilgan, maksimal miqdorda APS bonuslarini yig‘ishga qaratilgan Dastur Qoidalari va/yoki Marketing aksiyalari shartlariga (Dastur doirasida o‘tkaziladigan) zid bo‘lgan har qanday harakatlari, shuningdek, boshqa insofsiz (noqonuniy) harakatlari.

### 3. BONUSLARNI HISOBLASH VA FOYDALANISH SHARTLARI

- 3.1. «APS bonus» bonus Dasturi Ishtirokchi tomonidan APS bonuslarini (bundan keyin matnda – APS) hisoblash ko‘rinishida rag‘batlantirishni qo‘lga kiritish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu Bonus Dasturini tatbiq etish shartlari Tizim Operatori tomonidan belgilanadi.
- 3.2. Operator Qoidalarda va marketing aksiyalari shartlarida nazarda tutilgan operatsiyalar bo‘yicha APSni hisobga olish, detalizatsiya va foydalanishni amalga oshiradi.
- 3.3. APS pul mablag‘i hisoblanmaydi, uni naqd pul qilish yoki pul mablag‘iga almashtirish mumkin emas.
- 3.4. APSning hisobini yuritish va hisoblash maqsadlarida «A-Pay» Elektron pullar Tizimida amalga oshirilgan operatsiyalar, shuningdek, ushbu Qoidalarning talablariga muvofiq keluvchi boshqa harakatlar va/yoki voqealar inobatga olinadi.
- 3.5. Ishtirokchiga taqdim etilgan APS faqat ushbu Dasturning Qoidalariga muvofiq foydalanilishi mumkin.
- 3.6. APSdan foydalanish Qoidalarda belgilangan Bonus Dasturining cheklovchi shartlariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.
- 3.7. APS o‘tkazilmaydi va boshqa Ishtirokchiga o‘tkazilishi mumkin emas.
- 3.8. 365 (uch yuz oltmish besh) kun mobaynida harakat bo‘lmagan va/yoki Tizimdagi elektron hamyon yopilganda Ishtirokchining APS qoldig‘i so‘zsiz va shubhasiz tartibda bekor qilinishi lozim va barcha hisoblangan bonuslar nolga qaytariladi.
- 3.9. APS miqdori «A-Pay» Elektron pul Tizimida olib borilgan operatsiyaning foizi sifatida va APS hisoblash shartlariga muvofiq belgilangan nisbatda hisoblanadi. APS miqdori yaxlitlanmaydi va verguldan so‘ng ikki kasrga yozilishi lozim.
- 3.10. Hisoblanadigan APS miqdori ushbu Qoidalarning ajralmas qismi hisoblangan 1-ildavda aks ettirilgan APS bonuslarni hisoblash Shartlariga muvofiq ravishda hisoblanadi.
- 3.11. Hisoblangan va/yoki foydalanilgan APS miqdorini yuritish Qoidalarga muvofiq, maxsus hisobda olib boriladi. Operator hisob-kitobni olib boradi va ma‘lumotni Ishtirokchiga beradi. Dastur Ishtirokchisi o‘z elektron hamyonini mustaqil ravishda va/yoki Operator orqali, va/yoki A-Pay Agenti orqali to‘ldirganida, bonusli APSlar hisobga yozilishining maksimal chegarasi bir oyda 400 000 (to‘rt yuz ming) APSni tashkil qiladi. Bonusli APSlar miqdori maksimal oylik chegaraga yetganida, bonusli APSlarni Operator tomonidan hisobga yozish keyingi kalendar oyga qadar to‘xtatiladi.
- 3.12. Operator tomonidan Ishtirokchining roziligisiz elektron hamyondan foydalanishga urinishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar olingan yoki aniqlangan, Operator tomonidan Ishtirokchi dasturining suiiste‘mol qilinishi to‘g‘risida ma‘lumotlar olingan yoki aniqlangan hollarda APS hisoblanishi amalga oshirilmaydi (agar alohida Aksiyalarning qoidalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa).
- 3.13. APS hisoblanganidan so‘ng Ishtirokchi Qoidalarda va/yoki Aksiya qoidalarida o‘rnatilgan tartibda bonuslardan foydalanish huquqini qo‘lga kiritadi.
- 3.14. Dastur Ishtirokchisi uning maxsus hisob raqamida ma‘lumot aks etgan APSdan faqat Operator Peshtaxtasida joylashtirilgan Tovarlar, xizmatlarni sotib olish va Ishtirokchi tomonidan ularga buyurtma berish sanasida foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Ishtirokchi Peshtaxtadagi buyurtmaga kirish mumkin bo‘lgan APS bonuslarda Tovarlar, xizmatlarning ro‘yxati va qiymati haqida Operatorning Saytidan va/yoki mobil ilovasidan bilib olishi mumkin. Peshtaxtadagi Tovarlar, xizmatlarni olish ro‘yxati va shartlarini Operator bir tomonlama tartibda o‘zgartirishi mumkin.
- 3.15. Peshtaxtadagi har bir Tovar, xizmat APSning tegishli miqdoriga teng bo‘lgan o‘z qiymatiga ega.

- 3.16. Operator va/yoki Hamkorlar tomonidan Peshtaxtada taqdim etiladigan Tovar, xizmatlar Ishtirokchi tomonidan faqat to'plangan APSlar hisobiga sotib olinishi mumkin. Agar APS miqdori Ishtirokchining maxsus hisob raqamida Tovar, xizmatlarni sotib olish uchun yetarli bo'lmasa, Ishtirokchi ularni sotib olish imkoniga ega bo'lmaydi.
- 3.17. APSni qo'lga kiritish uchun Ishtirokchi «A-Pay» Elektron pul Tizimida o'ziga va o'z manfaatlariga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishi shart, Tizimdagi operatsiyalar va tranzaksiyalar Ishtirokchining shaxsiy tranzaksiyalari bo'lishi lozim. Ishtirokchiga boshqalarning manfaatlari yo'lida har qanday operatsiyalar, tranzaksiyalar olib borish taqiqlanadi. Operator tomonidan unga va/yoki Hamkorga turli ko'rinishdagi va darajadagi moddiy, ma'naviy va boshqa zarar yetkazuvchi oqibatlarga olib keluvchi tovlamachilik, yolg'on va boshqa nayranglar sifatida baholangan harakatlar aniqlangan taqdirda, Ishtirokchining Qoidalarga mos kelmaydigan va maksimal miqdordagi APS olishga qaratilgan harakatlari fosh qilingan hollarda avval hisoblangan va o'tkazilgan APSlar Ishtirokchini oldindan ogohlantirmagan holda bekor qilinishi yoki tuzatilishi lozim bo'ladi.

## 4. OPERATOR PESHTAXTASIDAGI TOVARLAR, XIZMATLARGA BUYURTMALARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

- 4.1. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Peshtaxtada joylashtirilgan tovarga buyurtmani rasmiylashtirish Shaxsiy kabinetdan va/yoki mobil ilovadan foydalangan holda amalga oshiriladi. Foydalanish mumkin bo'lgan APS miqdori shaxsiy kabinet va/yoki mobil ilovadan foydalanishga ham mumkin bo'ladi. Peshtaxtadan Tovar, xizmatlarga buyurtma berishda maxsus hisob raqamning balansi Tovar, xizmatlarga buyurtma berish uchun zarur bo'lgan APS miqdoriga qarab kamayadi.
- 4.2. Shaxsiy kabinet va/yoki mobil ilova orqali Tovar, xizmatlarga buyurtmani rasmiylashtirishda APSdan foydalanish uchun Ishtirokchi «A-Pay» Elektron pul Tizimining identifikatsiyalangan mijosi bo'lishi lozim, Peshtaxtadan Tovar, xizmatlarni tanlashi va o'z buyurtmasini tasdiqlashi zarur.
- 4.3. Ishtirokchi tomonidan Tovar, xizmatlarga buyurtmaning tasdiqlanishi uning APSdan Qoidalarda ko'rsatilgan tartibda foydalanish vakolati hisoblanadi. Operator va/yoki Hamkor Ishtirokchiga u sotib olgan Tovarni o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuini amalga oshiradilar, jumladan, Tovarni yetkazib berish to'g'risidagi masalaga aniqlik kiritish uchun Ishtirokchi bilan bog'lanishlari mumkin. Agar Ishtirokchining aybi bilan yetkazib berish amalga oshirilmagan bo'lsa, u holda Tovarni takroran yetkazib berish shartlari va imkoniyati Ishtirokchi hamda Operator/Hamkor bilan qo'shimcha ravishda kelishib olinadi. Bunday hollarda Tovarni takroran yetkazib berish xarajatlari Ishtirokchi zimmasiga yuklanadi.
- 4.4. Ishtirokchi tomonidan Peshtaxtadan sotib olingan Tovar, xizmatlar Operator va/yoki Hamkorga qaytarilmaydi.
- 4.5. Tovarni, xizmatlarni Ishtirokchi joylashgan (turgan) hududga qadar yetkazib berish Operatorning majburiyatiga kirmaydi. Tovarni yetkazib berish qiymati Operatorning xohishiga ko'ra qo'shimcha ravishda ko'rsatilishi mumkin.

## 5. ISHTIROKCHINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
  - 5.1.1. Internet tarmog'iga kirish uchun mustaqil ravishda to'lov qilish (shaxsiy pul mablag'lari hisobiga) va Dasturda qatnashish uchun talab qilinadigan boshqa xarajatlarni o'z zimmasiga olib, bu Dasturning tekinligiga va unda qatnashishga ta'sir ko'rsatmaydi.

- 5.1.2. Dasturda qatnashish doirasida har qanday boshqa sabablar bilan Operatorga yolgʻon, noaniq, toʻqilgan, notoʻgʻri, soxta yoki ishonchsiz maʼlumotlarni taqdim etmaslik;
- 5.1.3. Qandaydir noqonuniy yoki insofsizlarcha harakatlarni amalga oshirish maqsadida Operator va/yoki Hamkorlar tomonidan Dasturni joriy etishda qoʻllaniladigan dasturiy taʼminotning dastlabki kodidan nusxa koʻchirish, qismlarga ajratish yoki boshqa yoʻl bilan qoʻlga kiritishga urinmaslik;
- 5.1.4. Moddiy va boshqa foydalar olishga, Dastur Ishtirokchilariga zarar, xususan, moddiy zarar yetkazishga qaratilgan, shuningdek, «A-Pay» Elektron pul Tizimining ishlashiga salbiy taʼsir koʻrsatishga qodir noqonuniy va ruxsat etilmagan harakatlarni (jumladan, turli xil texnik usullarni qoʻllagan holda) sodir etmaslik;
- 5.1.5. Operatorga APSning xato oʻtkazilishi holati toʻgʻrisida xabar berish va uning qaytarilishiga toʻsqinlik qilmaslik;
- 5.1.6. Dasturdan tovlamachilik va Operatorga va/yoki Hamkorga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan boshqa sabablarda foydalanmaslik;
- 5.1.7. mustaqil ravishda va har kuni Operator tomonidan Operator saytida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilayotgan axborot bilan, jumladan, Qoidalarga kiritilgan oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar toʻgʻrisida maʼlumot olish maqsadida tanishib borish;
- 5.1.8. Operatorning talabi boʻyicha unga Operator tomonidan soʻralgan tegishli talabnoma joʻnatilgan sanadan boshlab 1-ish kundan kechikmagan holda axborot va hujjatlarni taqdim etish.

## 5.2. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- 5.2.1. Aksiya tranzaksiyalari, operatsiyalarni amalga oshirishda APS olish;
  - 5.2.2. Qoida shartlarida belgilangan cheklovlarni inobatga olgan holda APSdan toʻliq yoki qisman foydalanishni amalga oshirish;
  - 5.2.3. Hisoblangan APSdan norozi boʻlgan hollarda tranzaksiya, operatsiyalar sodir etilganidan soʻng 5 kalendar kuni davomida Operatorga koʻrib chiqish uchun yozma ariza joʻnatish;
  - 5.2.4. Istalgan vaqtda suddan tashqari bir tomonlama tartibda dasturda qatnashishdan bosh tortish shular jumlasidandir. Buning uchun Operatorga qatnashishni toʻxtatish toʻgʻrisida xabarnoma joʻnatish zarur. Operatorning Ishtirokchidan xabarnoma olgan vaqtdan boshlab Dasturda qatnashishi toʻxtagan hisoblanadi. Operator APS hisoblanishini toʻxtatadi va Ishtirokchining maxsus hisobida avval toʻplangan barcha APSni bahssiz va kelishuvsiz tartibda bekor qiladi. Ishtirokchi bekor qilingan APSning qandaydir ekvivalentini olish huquqiga ega emas. Shu bilan birga, Dasturda qatnashishi toʻxtagan sanaga qadar Ishtirokchi APSdan foydalangan holda Peshtaxtadan Tovar, xizmatlar sotib olish uchun buyurtmani rasmiylashtirgan boʻlsa ham Tovar Ishtirokchiga topshirilmaydi, Ishtirokchining Dasturda qatnashishi toʻxtaganligi munosabati bilan xizmatlar koʻrsatilmaydi. Dasturda qatnashishning toʻxtatilishi Ishtirokchining Dasturda qatnashish davridagi Qoidalarning buzilishi bilan bogʻliq majburiyatlaridan tashqari uning va Operatorning dastur doirasidagi boshqa majburiyatlari ham tugashiga olib keladi.
- 5.3. Ishtirokchi oʻzining Hisobga olish qaydlarining nazorati saqlanishi uchun masʼul hisoblanadi va Hisobga olish qaydlariga har qanday uchinchi shaxslarning kirmasligini, shuningdek, har qanday uchinchi shaxslar tomonidan Ishtirokchining Hisobga olish qaydlariga nisbatan harakatlar sodir etilmasligini taʼminlaydi. Avtorizatsiyalanganidan soʻng Hisob qaydlariga nisbatan sodir etilgan har qanday harakatlar Ishtirokchi tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb eʼtirof etiladi.

## 6. OPERATORNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Operatorning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- 6.1.1. Mijozlarga APSni hisoblash shartlariga muvofiq hisoblash;
- 6.1.2. Ishtirokchilarga Qoidalarning barcha shartlariga rioya qilgan holda to'plangan APS sarf qilishini ta'minlash;
- 6.1.3. Aksiya tranzaksiyasi, operatsiyalar sodir etilganidan so'ng 5 (besh) kalendar kuni davomida Ishtirokchidan texnik sabablarga ko'ra hisoblanmagan APSni o'tkazish bilan bog'liq arizasini ko'rib chiqishga qabul qilish;
- 6.1.4. Qoidalar, Nizomlarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, shuningdek, Bonus Dasturini yopish to'g'risida qaror qabul qilinganda Operatorning rasmiy sayti va/yoki mobil ilovasida tegishli axborotni joylashtirish.

### 6.2. Operator quyidagi huquqlarga ega:

- 6.2.1. O'z xohishiga ko'ra Operatorning fikriga bo'yicha APSni hisoblash, foydalanish, yopish (o'chirish) uchun zarur bo'lgan, shuningdek, Dasturda qatnashish bilan bog'liq boshqa maqsadlar uchun Ishtirokchidan har qanday axborot va hujjatlarni so'rab olish;
- 6.2.2. Ishtirokchi tomonidan so'ralgan axborotlar va hujjatlar taqdim etilguniga qadar APS hisoblanishini va/yoki ulardan foydalanish imkoniyatini to'xtatib turish;
- 6.2.3. Ishtirokchi tomonidan so'ralgan axborotlar va hujjatlar Qoidalarda nazarda tutilgan muddatda taqdim etilmagan holda APS hisoblanishini, ulardan foydalanish imkoniyatini rad etish;
- 6.2.4. APS hisoblash va foydalanish bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda Ishtirokchi tomonidan yozma arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar tekshiruvini amalga oshirish;
- 6.2.5. Ishtirokchiga APS o'tkazish va hisobdan chiqarish bo'yicha operatsiyalar olib borishni rad etish, shuningdek, avval hisoblangan APSni: tranzaksiyalar o'tkazilishini tasdiqlovchi elektron hujjatni yo'qligida, tranzaksiya Ishtirokchi tomonidan olib borilganligiga shubha tug'ilganda, Ishtirokchi olib borgan operatsiya Qoidalar yoki mazkur operatsiyani amalga oshirish bo'yicha Operator tomonidan belgilangan tartibga zid kelsa, operatsiya o'tkazish uchun APSdan foydalanish uchun yetarli miqdorda bonuslar mavjud bo'lmaganida, Bonus Dasturi Ishtirokchilari va Tizim ishiga zarar yetkazishga qaratilgan turli xil texnik usullarni qo'llagan holda sodir etilgan ruxsatsiz yoki qonunga zid harakatlar amalga oshirilgan taqdirda qaytarib olishi (bekor qilishi, nolga tushirishi);
- 6.2.6. Qoidalarga o'zgartirishlar, qo'shimchalar (xususan, yangi tahrirlarni belgilash), shu jumladan, Qoidalarga ilovalarni kiritish. Bonus Dasturi Ishtirokchilarini xabardor qilish Operator tomonidan Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni Operatorning veb-saytida va/yoki mobil ilovasida e'lon qilish yo'li bilan yoki Ishtirokchiga ma'lumotni olish va Operatoridan kelganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa usul bilan amalga oshiriladi. Agar e'lon qilishda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'zgartirishlar, qo'shimchalar ular e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 6.2.7. Operatorning veb-saytida va/yoki mobil ilovasida tegishli ma'lumotni e'lon qilish orqali yoki Ishtirokchiga ma'lumot olish hamda uni Operatoridan kelganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa usul bilan Bonus dasturi Ishtirokchilarini xabardor qilgan holda Bonus Dasturini yopish. Operator Dasturni tugatish to'g'risida xabar bergan paytdan boshlab Ishtirokchilar Peshtaxtada Tovarlar, xizmatlarni olish uchun buyurtmalarni qoldirishga haqli yemas, Bonus Dasturi tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab yopiq hisoblanadi;
- 6.2.8. agar Bonus Dasturini suiiste'mol qilinishida shubha tug'ilgan hollarda Ishtirokchiga APS hisoblashni hamda bonuslar sarflanishini to'xtatish;

- 6.2.9. noto‘g‘ri hisoblangan, texnik nosozlik, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan tovarlar/xizmatlar uchun to‘lov bekor qilinganda va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda APS balansini to‘g‘rilash;
  - 6.2.10. Bir tomonlama, suddan tashqari tartibda Ishtirokchining maxsus hisobini blokirovkalash, avval hisoblangan APSni bekor qilish va agar Ishtirokchi:
    - 6.2.10.1. Qoidalarning shartlarini buzsa va/yoki ularga rioya qilmasa;
    - 6.2.10.2. Qoidalarda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida o‘ziga berilgan huquq va imkoniyatlarni suiiste‘mol qilsa, shuningdek, noqonuniy harakat qilsa;
    - 6.2.10.3. tadbirkorlik faoliyatini bajarishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida Dasturdan foydalansa;
    - 6.2.10.4. Operatorga noto‘g‘ri va/yoki chalg‘ituvchi ma‘lumotlarni taqdim etsa;
  - 6.2.11. aksiyalarda ishtirok etish maqsadida Hamkorlarni jalb etsa;
  - 6.2.12. qo‘shimcha APS hisoblanadigan va boshqa Rag‘batlantirishlar taqdim etiladigan Aksiyalar o‘tkazsa;
  - 6.2.13. APS hisoblash va yopish (hisobdan chiqarish) shartlarini belgilasa, ulardan foydalanish limitini va boshqa cheklovlarini belgilasa, Ishtirokchini Dastur ishtirokchilari tarkibidan chiqarib tashlash (Dasturda ishtirok etishni to‘xtatish);
  - 6.2.14. Quyidagi hollarda Ishtirokchining maxsus hisobidan APSni bir tomonlama bekor qilish: noto‘g‘ri hisoblash; Ishtirokchining maxsus hisob raqamiga hisoblangan kundan boshlab, 365 (uch yuz oltmish besh) kalendar kun ichida APSdan foydalanmaslik; maxsus hisobdagi balansda o‘zgartirishlarning va «A-Pay» elektron pullar Tizimidan so‘nggi Operatsiya/maxsus hisobdagi balans o‘zgarishi sanasidan boshlab olti oy mobaynida foydalanilgan Operatsiyalarning yo‘qligi (ilgari to‘plangan APS to‘liq bekor qilinadi), Dasturda ishtirok etishni tugatish; Operator tomonidan ma‘lumot olish yoki Ishtirokchi tomonidan Dasturni suiiste‘mol qilish holatlarini aniqlash. Agar maxsus hisob varag‘idagi APS soni Qoidalarga muvofiq bekor qilinishi lozim bo‘lgan mablag‘dan kam bo‘lsa, Operator APSning zarur miqdorini ular Ishtirokchining maxsus hisobvarag‘ida to‘planganda hisobdan chiqaradi.
  - 6.2.15. Ishtirokchi Operator tomonidan firibgarlik, yolg‘on yoki boshqa manipulyatsiya deb e‘tirof etilgan, Operator uchun turli xil va darajadagi moddiy, ma‘naviy va boshqa zararli oqibatlariga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etgan yoki sodir etmoqchi bo‘lgan hollarda Dasturda ogohlantirishsiz ishtirok etishni rad etish (faqat Dastur doirasida Ishtirokchiga berilgan huquqlarni suiiste‘mol qilishga qaratilgan). Huquqlarni suiiste‘mol qilish deganda Ishtirokchining Qoidalarga mos kelmaydigan va APSning maksimal miqdorini olishga qaratilgan noqonuniy harakatlari tushuniladi. Bunday hollarda ilgari hisoblangan va o‘tkazilgan APS bekor qilinishi yoki to‘g‘rilanishi lozim.
  - 6.2.16. Ishtirokchini oldindan ogohlantirmasdan APS to‘plash, foydalanish ehtimolini vaqtincha to‘xtatib, profilaktika ishlarini olib borish;
  - 6.2.17. Ishtirokchining roziligisiz o‘z majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish;
  - 6.2.18. Ishtirokchini qo‘shimcha ogohlantirmasdan turib Peshtaxtdagi tovarlar, xizmatlar, tovarlar, xizmatlar nomini to‘ldirish va chiqarib tashlash.
- 6.3. Operator o‘z xohishiga ko‘ra qoidabuzarlik darajasidan kelib chiqib, qoidabuzarlik ilk bor aniqlanganda Ishtirokchiga ogohlantirish qo‘llashga haqlidir.
  - 6.4. Operator tomonidan Ishtirokchining Dasturda qatnashishini Qoidalarda belgilangan tartibda bekor qilinishi Ishtirokchi APSini so‘zsiz va muddatsiz bekor qilinishiga, APSdan foydalangan holda Tovar, xizmatlarni olish imkonining mumkin emasligiga hamda Operator va/yoki Hamkorning Dastur doirasida Ishtirokchi oldidagi majburiyatini bekor qilinishiga olib keladi. Tegishli Ishtirokchining Dasturdagi ishtiroki APS bekor qilingandan keyin tugatilgan hisoblanadi. Operator Qoidalarda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra Dasturdagi ishtiroki tugatilgan taqdirda Ishtirokchining Dasturda qayta ishtirok etishini rad etishga haqli.



- 6.5. Agar Operator Ishtirokchining o'limi yoki uni bedarak yo'qolgan yoki o'lgan deb e'tirof etish to'g'risidagi ma'lumotni olgan hollarda ham Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishi to'xtatiladi. Bu Ishtirokchi APSning bekor qilinishi, Operator Peshtaxtasidagi Tovar, xizmatlarga buyurtma berishning imkoni yo'qligi va Operatorning Dastur doirasida Ishtirokchi oldidagi majburiyatlari bekor qilinishiga olib keladi.
- 6.6. Operator quyidagilar uchun javobgar emas:
- 6.6.1. tizimdan foydalanish yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq holda Ishtirokchiga yetkazilgan har qanday moddiy va ma'naviy zarar;
  - 6.6.2. sabablaridan qat'i nazar, Tizimning ishlashidagi texnik nosozliklar va tizimning uzluksiz ishlashini, shu jumladan APSni hisoblash, undan foydalanishning uzluksiz imkoniyatini kafolatlamaydi;
  - 6.6.3. uchinchi shaxslarning Ishtirokchining Hisobga olish raqamiga kirishi, unda uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan har qanday harakatlar;
  - 6.6.4. Operatorning APSni hisoblash, foydalanish, yechib olishni rad etishi, Ishtirokchining Dasturdagi ishtirokini tugatishning har qanday oqibatlarini;
  - 6.6.5. Ishtirokchining haqiqiy irodasi va Ishtirokchining APSdan foydalanish to'g'risidagi buyrug'ining mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlik, Dasturda ishtirok etishni tugatish;
  - 6.6.6. Ishtirokchi tomonidan Dasturda ishtirok etish paytida Qurilmaning o'zgartirish tufayli dasturiy ta'minot xususiyatlari bilan bog'liq oqibatlarini;
  - 6.6.7. Dastur Qoidalariga muvofiq sotib olingan tovarlar, xizmatlar Ishtirokchi tomonidan olinganidan keyin buyurtmani bajarish muddati uchun javobgar emas.
  - 6.6.8. agar tovarlar Operatorga ham, Hamkorga ham tegishli bo'lsa, tovarning sifati, butligi va boshqa kamchiliklari. Operator Ishtirokchi tomonidan tanlangan tovarlarning Operator va/yoki Hamkorning omborida yo'qligi uchun javobgar emas.
  - 6.6.9. «A-Pay» Elektron pul Tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik va texnologik xatolar.
- 6.7. Operatorning Qoidalarni buzganlik uchun Ishtirokchi oldidagi javobgarligi APSni hisoblash bilan bog'liq har qanday da'vo - Ishtirokchining maxsus hisobiga bonuslarning tegishli miqdorini hisoblash bilan cheklanadi.
- 6.8. Ishtirokchi tomonidan Qoidalar buzilgan taqdirda Operatorning harakatsizligi Operatorni keyinchalik uning manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli harakatlarni amalga oshirish huquqidan mahrum qilmaydi, shuningdek, Operatorning bunday qoidabuzarlik hamda keyinchalik shu yoki shunga o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi bilan bog'liq huquqlaridan voz kechishni anglatmaydi

## 7. NIZOLARNI HAL ETISH

- 7.1. Ishtirokchining hisoblangan APSga e'tirozlari bo'lgan taqdirda Ishtirokchi APS hisoblanishi amalga oshirilmagan aksiya tranzaksiyasi, operatsiyalar bo'lib o'tgan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kuni davomida tegishli arizani yozma shaklda Operator manziliga jo'natishga haqlidir. Agar ko'rsatilgan muddat ichida Operator hisoblangan APSga e'tirozlar olmasa, bonuslar qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi va keyinchalik Ishtirokchining da'volari ko'rib chiqilmaydi va qanoatlantirilmaydi.
- 7.2. Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun Ishtirokchi Aloqa-markaziga murojaat qilish huquqiga ega.
- 7.3. Operator va Ishtirokchi o'rtasidagi «APS bonus» Bonus Dasturi Qoidalari bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolar va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, nizo Operator joylashgan joydagi sud organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

## 8. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA VA REKLAMA, AXBOROT XABARLARINI OLISHGA ROZILIK

- 8.1. Dastur Ishtirokchisi bo'lish orqali Ishtirokchi ushbu Dasturda ishtirok etish shartlariga rozilik bildiradi.
- 8.2. Ishtirokchi quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, shu jumladan, yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, (aniqlashtirish, yangilash, o'zgartirish), foydalanish, egasizlashtirish, blokirovka qilish, yo'q qilishga rozilik bersa-da, lekin quyidagi shaxsiy ma'lumotlar bilan cheklanmaydi: Dastur Ishtirokchisini aniqlash, APS bonuslarini to'plash va ulardan foydalanishni hisobga olish tartibini ta'minlash, buyurtmalarni yetkazib berish, reklama, axborot xabarlarini tarqatish (har qanday aloqa kanallari orqali, jumladan, pochta, SMS, elektron pochta, telefon, mobil ilova, boshqa aloqa vositalari orqali o'tkazilayotgan aksiyalar va maxsus takliflar) maqsadida familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, manzili, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili.
- 8.3. Ishtirokchi uning shaxsiy ma'lumotlari shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlariga mos keladigan, shu jumladan, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan qayta ishlanishiga rozi bo'ladi. Shuningdek, rozilik shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga to'liq javob berishiga va Operator tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlashga imkon berishiga o'z roziligini bildiradi.
- 8.4. Rozilik Ishtirokchi tomonidan Dasturning to'liq amal qilish muddati uchun beriladi. Shu bilan birga, Ishtirokchi ushbu rozilikning bekor qilinishi uning Dasturdagi ishtirokini avtomatik ravishda to'xtatishi, APS bonuslari bekor qilinishi va bu ulardan foydalana olmaslikni anglatishi, shuningdek, Ishtirokchi Tizimdan va Dasturdan qayta foydalanishga qaror qilgan taqdirda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga qaytadan rozilik berishi kerakligi haqida xabardor qilinadi va takroran o'z roziligini bildiradi.
- 8.5. Ishtirokchi Operator uning Shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga, Hamkorlarga, shu jumladan, transchegaraviy uzatish orqali o'tkazish huquqiga ega ekanligidan xabardor (Tizim Ishtirokchilari tomonidan foydalanish uchun, Dasturda ishtirok etishni ta'minlash, Tovarlarni ro'yxatdan o'tkazish va yetkazib berish, shuningdek, Ishtirokchiga xizmat ko'rsatganlik uchun rag'bat olish, Ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini ta'minlash, shartnomalarni bajarish va boshqa maqsadlarda) qilinadi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

- 9.1. Dasturda ishtirok etish uchun to'lov amalga oshirilmaganligi sababli Ishtirokchi va Operator o'rtasidagi Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq munosabatlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qoidalar qo'llanilishi mumkin emas.
- 9.2. Operator Qoidalarga o'zgartirishlar kiritish (shu jumladan, yangi tahrirlarni belgilash), xususan, Qoidalarga llovalar kiritish huquqiga ega. Marketing aksiyalari e'lon qilingan kundan va/yoki Operator tomonidan belgilangan sanadan boshlab kuchga kiradi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar Operatorning rasmiy veb-saytlari va/yoki mobil ilovalarida joylashtirish (chop etish) orqali Bonus dasturi ishtirokchilari e'tiboriga havola etiladi. Ishtirokchining e'lon qilingan ma'lumotlar bilan tanishish vaqti Ishtirokchi uchun ma'lumot mavjud bo'lgan vaqt hisoblanadi.
- 9.3. Ishtirokchi Operator tomonidan veb-saytda va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan ma'lumotlar bilan mustaqil ravishda, shu jumladan, Qoidalarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida ma'lumot olish uchun Operatorga murojaat qilish orqali tanishishi shart.
- 9.4. Qoidalarga ular kuchga kirgan paytdan boshlab har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar Qoidalarga qo'shilgan bonus Dasturining barcha Ishtirokchilariga, shu jumladan, Qoidalarga o'zgartirishlar kuchga kirgunga qadar qo'shilganlarga nisbatan tatbiq etiladi.
- 9.5. Ishtirokchining bonus Dasturidan voz kechishining yo'qligi Ishtirokchining Qoidalarning yangi tahririga rozi ekanligini anglatadi. Operator tomonidan tasdiqlangan Qoidalarga rozi bo'lmagan taqdirda Ishtirokchi Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.
- 9.6. Dasturda ishtirok etish, shu jumladan, APS hisoblash va undan foydalanish faqat O'zbekiston Respublikasi hududida va Dasturning amal qilish muddati ichidagina amalga oshirilishi mumkin.
- 9.7. Operator o'z xohishiga ko'ra APS to'plash chegaralari va muddatlarini, APS ni o'tkazish va Mukofotni olish uchun maxsus hisobda saqlanishi kerak bo'lgan minimal APS miqdorini va boshqa shartlarni belgilaydi. Qayd etilgan ma'lumotlar Operatorning rasmiy veb-saytlari va/yoki mobil ilovalarida joylashtiriladi.
- 9.8. Agar APS maxsus hisob raqamiga hisoblangan kundan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kun ichida Ishtirokchi APS bonuslaridan foydalanmagan bo'lsa, ular avtomatik ravishda maxsus hisobdan kelgusida Ishtirokchi tomonidan undan foydalanish huquqsiz yechib olinadi.
- 9.9. «APS bonus» Bonus Dasturiga tegishli barcha savollar bo'yicha Ishtirokchilar Operatorning Call-markaziga quyidagi telefon orqali murojaat qilishlari mumkin: +998 (55) 500-11-10
- 9.10. Agar u yoki bu sabablarga ko'ra Qoidalarning bir yoki bir nechta tartiblari haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas, deb e'tirof etilishi Qoidaning qolgan tartiblari haqiqiylikiga yoki qo'llanilishiga ta'sir qilmaydi.
- 9.11. «APS bonus» Bonus Dasturiga qo'shilish orqali Ishtirokchi mazkur Qoidalarga to'liq rozi bo'ladi.

# «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ TO‘LOV TASHKILOTI «A-Pay» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI:

100090, O zbekiston Respublikasi,  
Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, A. Qahhor k., 1a-uy

STIR: 306 344 019  
h/r: 2020 8000 9050 6594 4001  
AKB «TENGE BANK»  
Bank STIRi: 207 297 973  
FAA: 01176 IFUT: 58290

Tel: (+99855) 500 11 10